

Energetika muammolariga bag'ishlangan konferensiya o'tkazildi

Joriy yil 24-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi hamda Namangan muhandislik-texnologiya instituti hamkorlikda "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan avtomatlashtirish va energetika muammolarini yechishda ilg'or innovatsion texnologiyalar va ta'limning o'rni" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.



Mazkur konferensiya "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash" hamda fizika fanini rivojlantirish yili munosabati bilan tashkil etildi.

Unda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti, akademik Bekzod Yuldoshev, akademik Sa'dulla Baxramov, vitse-prezident Sirojiddin Mirzayev respublikamizning turli hududlari hamda Malayziya, Pokiston, Hindiston, Janubiy Afrika Respublikasi, Norvegiya, Belarus va Rossiya kabi davlatlarning nufuzli ta'lim muassasalari yetakchi olimlari oflayn va onlayn tarzda ishtirok etib, o'z tajribalari va fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashdi.



Konferensiya doirasida FA prezidenti B.Yuldashev, akademik S.Baxramov hamda vitse-prezident S.Mirzayev yosh olimlar bilan uchrashdi. Fanlar akademiyasi tomonidan bunday uchrashuvlar respublikamiz miqyosida tez-tez o'tkazilib kelinmoqda. Bu yoshlarni ilm-fanga jalb qilish, ularni fanning eng muhim yo'nalishlari, yangi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan yaqindan tanishtirish, kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi.